

“NAHJ UL-FARODIS” ASARIDA FORS-TOJIK O‘ZLASHMALAR: MORFOLOGIK VA SEMANTIK-STATISTIK TAHLIL

Dilnoza Akramovna Abduvaliyeva,

F.f.f.d. (PhD), dotsent

a.dilnoza1981@gmail.com

Jizzax davlat pedagogika universiteti

Annotatsiya. Mazkur maqolada XIV asr yozma yodgorligi — “Nahj ul-farodis” asarida uchraydigan fors-tojik o‘zlashmalarining morfologik va semantik-statistik xususiyatlari tahlil qilinadi. Tadqiqot jarayonida asar leksikasidagi fors-tojik qatlam aniqlanib, ularning umumiy ulushi, so‘z turkumlari bo‘yicha taqsimoti hamda grammatik moslashuv xususiyatlari o‘rganildi. Tahlil natijalariga ko‘ra, mazkur o‘zlashmalar asosan ot va sifat turkumlarida jamlangan bo‘lib, nominativ va tavsiflovchi funksiyalarni bajaradi. Shuningdek, ular turkiy affikslar orqali morfologik moslashuvga uchragani aniqlandi. Semantik jihatdan esa ushbu birliklar diniy, ijtimoiy va ruhiy tushunchalarni ifodalashda muhim rol o‘ynaydi. Tadqiqot natijalari o‘rta asr turkiy adabiy tilining shakllanishida til kontaktlari va o‘zaro ta‘sir jarayonlarining ahamiyatini ko‘rsatadi.

Kalit so‘zlar: “Nahj ul-farodis”, fors-tojik o‘zlashmalar, leksik qatlam, morfologik moslashuv, semantik tahlil, statistik tahlil, turkiy til, o‘rta asr adabiy tili.

Аннотация. В статье анализируются морфологические и семантико-статистические особенности персидско-таджикских заимствований в памятнике XIV века «Нахдж ул-фарадис». Определены их доля в лексике произведения, распределение по частям речи и особенности грамматической адаптации. Установлено, что заимствования преимущественно представлены существительными и прилагательными, выполняющими номинативную и дескриптивную функции, а также адаптированы посредством тюркской аффиксации. В семантическом плане они активно используются для выражения религиозных, социальных и психоэмоциональных понятий. Результаты исследования подтверждают важную роль языковых контактов в формировании средневекового тюркского литературного языка.

Ключевая слова. «Нахдж ул-фарадис», персидско-таджикские заимствования, лексический слой, морфологическая адаптация, семантико-статистический анализ, тюркский язык, средневековый литературный язык.

Abstract. This article analyzes the morphological and semantic-statistical features of Persian-Tajik loanwords in the 14th-century monument “Nahj al-Faradis.” Their proportion in the text, distribution across parts of speech, and patterns of grammatical adaptation are identified. The findings show that these loanwords are mainly nouns and adjectives performing nominative and descriptive functions, and are adapted through Turkic affixation. Semantically, they are actively used to express religious, social, and psychological concepts. The results confirm the significant role of language contact in the formation of the medieval Turkic literary language.

Keywords: “Nahj al-Faradis”, Persian-Tajik loanwords, lexical layer, morphological adaptation, semantic-statistical analysis, Turkic language, medieval literary language.

Kirish. “Nahj ul-farodis” [3] asari (XIV asr) turkiy adabiy til tarixida muhim o‘rin tutuvchi yozma yodgorliklardan biridir. Ushbu asar tili o‘zining ko‘p qatlamli leksik tarkibi bilan ajralib turadi. Unda turkiy, arab, fors-tojik hamda boshqa tillardan o‘zlashgan unsurlarning o‘zaro uyg‘unlashuvi kuzatiladi. Bu esa o‘rta asrlar turkiy adabiy tilining shakllanishi va rivojlanish jarayonini o‘rganishda muhim ilmiy manba vazifasini bajaradi.

Asar leksikasining statistik tahlilidan ma‘lum bo‘ldiki, undagi leksik birliklarning 46 %i arabcha, 44 %i turkiy unsurlardan iborat, 7 %ini fors-tojik o‘zlashmalar tashkil

etadi. Shuningdek, 3 % birliklar boshqa tillardan o‘zlashgan qatlamga mansubdir. Ushbu ko‘rsatkichlar asar tilida arabcha va turkiy qatlam ustun mavqega ega ekanini ko‘rsatadi, shuningdek, fors-tojik o‘zlashmalar ham o‘zining funksional va struktur xususiyatlari bilan alohida ahamiyat kasb etadi. Tilshunoslikda o‘zlashma qatlamni o‘rganish faqat ularning miqdoriy ko‘rsatkichlarini aniqlash bilan cheklanmay, balki ularning til tizimiga moslashuv darajasini, xususan, morfologik xususiyatlarini tahlil qilishni ham taqozo etadi. “Nahj ul-farodis” asaridagi fors-tojik o‘zlashmalar turkiy tilning grammatik tizimiga moslashgan holda turli affiksalar orqali yangi grammatik shakllarni hosil qilgan. Bu esa ularning faqat leksik emas, balki morfologik integratsiya jarayonida ham faol ishtirok etganini ko‘rsatadi. Mazkur tadqiqotning maqsadi “Nahj ul-farodis” asaridagi fors-tojik o‘zlashmalarni aniqlash, ularning morfologik xususiyatlarini tavsiflash hamda statistik jihatdan tahlil qilishdan iborat. Tadqiqot jarayonida asar leksikasidagi fors-tojik qatlamga mansub birliklar ajratib olinib, ularning so‘z turkumlari, tuzilishi (tub va yasama shakllar), shuningdek, turkiy qo‘shimchalar orqali yuzaga kelgan morfologik o‘zgarishlari o‘rganildi.

Adabiyotlar tahlili. Turkiy yozma yodgorliklar tilidagi o‘zlashma qatlamni o‘rganish tilshunoslikning muhim yo‘nalishlaridandir. O‘zbek adabiy tili leksikasining tarixiy shakllanishida arab va fors-tojik unsurlarining tutgan o‘rni, ularning til tizimiga kirib kelishi hamda grammatik moslashuvi ilmiy adabiyotlarda keng yoritilgan [1,2,5,7]. Xususan, o‘zlashma birliklarning leksik tarkibdagi o‘rni, qatlamlashuvi va funksional xususiyatlari izchil tadqiq etilgan. Shu bilan birga, turkiy tillarda o‘zlashma birliklarning morfologik moslashuvi, ularning affiksatsiya jarayonidagi ishtiroki va grammatik integratsiyasi umumiy tilshunoslik doirasida ham yoritilgan, bu jarayonlarning tizimli xususiyati asoslab berilgan [4,6]. Bunday yondashuv o‘zlashma qatlamni faqat leksik emas, balki morfologik hodisa sifatida ham baholash imkonini beradi. Biroq “Nahj ul-farodis” asari leksikasida fors-tojik o‘zlashmalarning morfologik xususiyatlarini statistik asosda kompleks o‘rganish masalasi yetarli darajada maxsus tadqiq etilmagan. Mazkur jihat ushbu ishning dolzarbligini belgilaydi.

Tadqiqotda tavsifiy va statistik metodlardan foydalanib, fors-tojik qatlamga mansub birliklarning umumiy leksik tarkibdagi ulushi hamda ularning so‘z turkumlari bo‘yicha taqsimoti aniqlandi.

Tadqiqot metodologiyasi. “Nahj ul-farodis” asari leksikasida aniqlangan fors-tojik o‘zlashmalar jami **223 ta** birlikni tashkil etadi. Ushbu birliklar lug‘atdagi asosiy ma‘nosi va qo‘llanish xususiyatiga ko‘ra so‘z turkumlari bo‘yicha tasniflandi. Tahlil natijalari fors-tojik qatlamning asosan **nomlovchi birliklar**, ya‘ni ot va sifatlar doirasida faol ekanini ko‘rsatadi.

Morfologik-statistik tasnifga ko‘ra, eng katta guruhni **ismlar** tashkil etadi. Ularning soni **147 ta** bo‘lib, umumiy fors-tojik qatlamning taxminan **65,8 %**igacha teng. Bu guruhga *andisha, andom, andoza, baho, banda, bozor, bugon, dastur, dimog‘, darozg‘osh, darvish,*

dargoh, darya, jon, namoz, ustod, parvardigor, payg'ambar, ro'za, xazinador, xizmatkor, xudo, zindon kabi birliklar kiradi. Ismlarning bunday ustunligi fors-tojik o'zlashmalar asarda, avvalo, narsa-hodisa, shaxs, joy, diniy tushuncha, ijtimoiy munosabat va mavhum tushunchalarni nomlash vazifasida faol qo'llanganini ko'rsatadi.

Ikkinchi yirik guruhni **sifatlar** tashkil etadi. Ular **51 ta** bo'lib, umumiy miqdorning **23 %**ini tashkil qiladi. Bu guruhga *barobar, behuda, behush, bemaza, bezor, durust, dushvor, mehrubon, navmid, pashimon, pok, rost, shod, xurram, xushnud, ziyrak* kabi birliklar kiradi. Sifatlarning salmoqli ulushi fors-tojik qatlamning asarda baholash, tavsiflash, ruhiy holat va axloqiy-ma'naviy sifatlarni ifodalashda faol bo'lganini ko'rsatadi.

Ravishlar soni **10 ta**, ular umumiy qatlamning **4,5 %**ini tashkil etadi. *Benihoyat, darhol, hamisha, hamon, hanuz, nogoh, ohasta, ravon, ziyoda* kabi birliklar harakatning vaqti, darajasi yoki bajarilish tarzini ifodalashga xizmat qiladi. Bu esa fors-tojik o'zlashmalarning faqat nomlovchi emas, balki holat va jarayonni aniqlovchi grammatik-semantik vazifalarda ham qo'llanganini ko'rsatadi. **Fe'llar** esa juda kam — atigi **2 ta bo'lib, ular ham asli turkiycha qil- fe'li bilan birikib qo'shma fe'l sifatida o'z qatlamga o'tgan: ag'oz qil-, darxost qil-**. Bu esa fors-tojik o'zlashmalar asarda asosan ot, sifat va ravish shaklida kirib kelganini, harakat bildiruvchi asosiy qatlam esa ko'proq turkiy fe'llar hisobiga shakllanganini ko'rsatadi.

Tahlillar va natijalar. Yordamchi so'zlar ham alohida ahamiyatga ega. **Bog'lovchilar** — *agar, ham, to, yoxud* — **4 ta** bo'lib, umumiy qatlamning **1,8 %**ini tashkil etadi. **Undovlar** — *bale, darig', hayhot, oriy, zinhor* — **5 ta**, ya'ni **2,3 %** atrofida. **Yuklamalar** — *bas, koshki* — **2 ta, olmosh** — *hech* — **1 ta, son** — *hazor* — **1 ta**. Bu birliklar son jihatdan kam bo'lsa-da, matnda modal, bog'lovchi va ekspressiv vazifalarni bajarishi bilan muhimdir.

Fors-tojik o'zlashmalarning semantik guruhlanishi va funksional tavsifi

“Nahj ul-farodis” asari leksikasida fors-tojik o'zlashmalar semantik jihatdan bir nechta guruhlarga ajralib, ular asar leksikasining mazmuniy va uslubiy rang-barangligini ta'minlaydi. Tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, mazkur o'zlashmalar nafaqat leksik birlik sifatida, balki muayyan semantik maydonlarni shakllantiruvchi faol komponent sifatida namoyon bo'ladi. Asar so'z boyligining funksional-semantik tadqiqi yodnoma matnida quyidagi mavzuiy guruhlar borligini ko'rsatdi:

Tuyg'u va hissiyotlar ifodasi. Tuyg'u-hissiyotga oid birliklar (*andisha, bezor, pashimon, shod, xurram, xushnud, orzu* va b.) insonning ichki kechinmalarini ifodalashda muhim o'rin egallagan. Xususan, **andisha, pashimon/pushaymon** kabi birliklar tafakkur va ichki iztirobni bildirsa, **shod, xurram, xushnud** kabi so'zlar ijobiy ruhiy holatni ifodalaydi. Bu guruhdagi birliklar asar tilida psixologik tasvir vositasi sifatida faol ishlatilgan.

Din va ma'naviyatga oid birliklar. Din va ma'naviyat bilan bog'liq o'zlashmalar (*namoz, ro'za, parvardigor, payg'ambar, darvish, gunah* va b.) asarning asosiy mazmuniy qatlamini tashkil etadi. Ushbu birliklar diniy tushunchalarni ifodalash bilan birga, ma'naviy-axloqiy g'oyalarni yetkazishda muhim vosita bo'lib xizmat qiladi. Ayniqsa, **parvardigor, payg'ambar, porso** kabi birliklar diniy terminologiyaning markaziy komponentlari sifatida ajralib turadi.

Tabiat va moddiy olam. Tabiat va o'simliklarga oid birliklar (*bodom, bo'ston, daraxt, darya, meva, nihol*) moddiy borliqni ifodalashda qo'llanadi. Bu guruhdagi o'zlashmalar asarda tasviriylikni kuchaytirib, muhit va voqelikni jonli ifodalashga xizmat qiladi.

Inson tanasi a'zolari va biologik tushunchalar. Inson tanasi bilan bog'liq birliklar (*andom, diyda, dimog', jon, tan* va b.) antropotsentrik tasvirni yuzaga keltiradi. Xususan, **jon, tan** kabi birliklar nafaqat biologik, balki majoziy ma'noda ham qo'llanib, semantik kengayishga ega ekanligi kuzatiladi.

Vaqt bilan bog'liq tushunchalar. Vaqtni ifodalovchi birliklar (*hamisha, hanuz, nogoh, darhol, yakshanba, chahorshanba* va b.) asarda voqealar ketma-ketligini va vaqt munosabatlarini ifodalashda xizmat qiladi. Bu birliklar orasida **hanuz, hamon** kabi so'zlar davomiylilikni, **nogoh** esa kutilmaganlikni bildiradi.

Buyumlar va moddiy madaniyat. Buyum va asbob-uskunalarga oid birliklar (*kilid, kog'iz, tandur, zanjir, zanbil* va b.) o'rta asr ijtimoiy-madaniy muhitini aks ettiradi. Bu guruh tilning nominativ funksiyasini kuchaytiradi.

Harakat va ijtimoiy munosabatlar. Harakat va kommunikativ jarayonlarni ifodalovchi birliklar (*ag'az qil-, baxshish, darxost, siyohat* va b.) faol semantik maydonni tashkil etadi. Masalan, **ag'az qil-** fe'li harakat boshlanishini bildirsa, **darxost qil- iltimos qilish, o'tinib so'rash bilan bog'liq** ijtimoiy munosabatni ifodalaydi.

Ijtimoiy qatlam va shaxs nomlari. Kishilar va ijtimoiy rollarni bildiruvchi birliklar (*banda, bozurgon, donishmand, shogird, ustod, podishoh* va b.) jamiyat tuzilmasini aks ettiradi. Bu birliklar ijtimoiy ierarxiya va kasbiy qatlamni ifodalashda muhimdir.

Joy va makon. Joy nomlari (*bozor, dargoh, saroy, zindon, xona* va b.) makoniy tasvirni yuzaga keltiradi.

Oziq-ovqat va hayvonot. *Kabob, nuxud, shakar* kabi birliklar oziq-ovqat madaniyatini aks ettirsa, *buxtiy, susmor* kabi birliklar hayvonot olamiga oid tasavvurlarni ifodalaydi.

Miqdor ifodalovchi va yordamchi birliklar. Miqdor ifodalovchi va grammatik funksiyaga ega birliklar (*hazor, ziyoda, agar, ham, hech, yoxud* va b.) tilning xizmat qiluvchi qatlamini tashkil etadi. Ayniqsa, **agar, ham, to, yoxud** kabi birliklar sintaktik bog'lanishda faol ishtirok etadi.

Munozara. Tadqiqot natijalari "Nahj ul-farodis" asari leksikasida fors-tojik o'zlashmalar nisbatan kam ulushni egallasa-da (7%), ularning funksional faolligi yuqori

ekanini ko'rsatadi . Bu holat o'zlashma birliklarning til tizimidagi ahamiyati miqdor bilan emas, balki ularning semantik yuklamasi va qo'llanish doirasi bilan belgilanadi. Morfologik jihatdan o'zlashmalar asosan ot va sifat turkumlarida jamlangan bo'lib, nominativ va tavsiflovchi vazifalarni bajaradi. Fe'llarning deyarli uchramasligi turkiy fe'l tizimining ustuvorligini saqlab qolganini bildiradi. Shu bilan birga, ayrim o'zlashmalar turkiy yordamchi fe'llar bilan birikib qo'shma fe'l hosil qilgani ularning qisman moslashganini ko'rsatadi. Semantik jihatdan ushbu birliklar asosan diniy-ma'naviy tushunchalar, ijtimoiy munosabatlar va ruhiy holatlarni ifodalashga xizmat qiladi. Bu esa fors-tojik qatlamning asar mazmunini shakllantirishdagi muhim rolini ko'rsatadi. Umuman, o'zlashmalar turkiy til tizimiga moslashgan holda leksik-semantik boyituvchi omil sifatida namoyon bo'ladi.

Xulosa. Fors-tojik o'zlashmalar "Nahj ul-farodis" leksikasida kam miqdorni tashkil etsa-da, mazmuniy jihatdan muhim qatlam hisoblanadi . Ular asosan ot va sifat turkumlariga mansub bo'lib, nominativ hamda tavsiflovchi funksiyalarni bajaradi. Mazkur birliklar turkiy tilga affiksatsiya orqali moslashgan va shu orqali til tizimiga integratsiyalashgan. Semantik jihatdan ular diniy, ijtimoiy va ruhiy tushunchalarni ifodalashda faol qo'llanadi. Natijada, asar tili turli til qatlamlarining o'zaro uyg'unlashuvi asosida shakllangan murakkab leksik tizim sifatida namoyon bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Begmatov E. *Hozirgi o'zbek adabiy tilining leksik qatlamlari*. – Toshkent, 1985.
2. Dadaboyev X., Hamidov Z., Xolmanova Z. *O'zbek adabiy tili leksikasi tarixi*. – Toshkent: Fan, 2007.
3. Eckmann J. (ön söz). *Nehcü'l-Ferâdis*. I. Tıpkıbasım. – Ankara: Türk Dil Kurumu Yayınları, 1956. B. 458.
4. Erdal M. *A Grammar of Old Turkic*. – Leiden: Brill, 2004;
5. G'ulomov X. *O'zbek-tadqiq tillararo aloqalar*. – Toshkent: Fan, 1983.
6. Johanson L. *The Turkic Languages*. – London: Routledge, 1998.
7. Usmonov S. *O'zbek tilining lug'at sostavida tojik-fors va arabcha so'zlar // Navoiyga armug'on*. – Toshkent: Fan, 1968.